1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. Duradgorlikda ishlatiladigan yog'ochlarning namunalarini tayyorlash.

Uyga berilgan vazifalarни tekshirish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash.

1. Yog'ochlarga ishlov berish ustaxonasiga qo'yiladigan sanitariya- gigiyena talablari haqida ma'lumot bering.
2. Duradgorlik o'quv ustaxonalarida ish o'mini tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Yog'ochga ishlov berishda qanday texnika xavfsizligi qoidalariга rivoj qilish kerak?
4. Xalq xo'jaligidagi yog'ochlarning ishlatilish sohalari haqida ma'lumot bering?
5. Yog'ochlar tuzilishiga ko'ra bir-biridan qanday farqlanadi?
6. Yog'ochlarning foydalananishga yaroqli yoki yaroqsizligi qanday

aniqlanadi?.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida yoki maktab hovlisida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Qurilish va duradgorlikda ishlatalidigan yog'och materiallarda uning puxtaligini kamaytiruvchi nuqsonlar bo'lmasligi, oson ishlanuvchan bo'lishi, berilgan shaklini o'zgartirmasligi, tashqi ta'sirlarga qarshilik ko'rsata olishi yoki buzilmasligi, havo va suv ta'siriga chidamli bo'lishi haqida ma'lumotlarni berish lozim. Darsni o'quvchilarga tushuntirishda yog'och namunalaridan foydalanish kerak chunki o'quvchilar amaliy ko'rgandan keyin ularning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi. Yog'ochlarning sifatlari ularning texnik xossalari tashkil etish to'g'risida tushintirish. Yog'och materiallaridan foydalanish vaqtida ularga nisbatan talab va shartlar Davlat standartiga asosan belgilanishini aytish lozim. Yog'ochning kimyoviy va fizik xossalari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Joriy yo'riqnomasi. O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Daraxtlar tashqi ko'rinishiga qarab ikki turga: ignabargli (qora qarag'ay, qarag'ay, tilog'och, keder va hokazo) hamda bargli (eman, qora qayin, qayin, tog'terak va xokazo) larga bo'linadi.

Yog'ochlik yuqori darajada mustaxkam bo'lib, unga kesuvchi asboblar bilan yaxshi ishlov bersa bo'ladi. Yog'ochdan yasalgan detallarni osongina yelimlash, mixlar va burama mixlar yordamida biriktirish mumkin. Yog'ochdan yasalgan buyumlarning tashqi ko'rinishi chiroyli chiqadi. Yog'ochning ko'zları va qurt teshgan joylari ham uning nuqsonları hisoblanadi. Bu kamchiliklar sanoat ishlab chiqarishida yog'ochdan foydalanish imkoniyatini cheklaydi, ammo ular bezakdor buyumlar tayyorlashda katta yordam berishi mumkin.

Yog'ochning fizik xossalari uning rangi, tovlanishi, tob tashlab eshilishi, tabiiy guli(teksturasi), hidi, namligi, nam ta'sirda bo'kishi, quruvchanligi, zichligi, nam o'tkazuvchanligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, tovush o'tkazuvchanligi, elektr o'tkazuvchanligidan iborat.

Yuqorida ma'lumotlar asosida o'quvchilar ayrim daraxtlarning umumiyligi shaklini va alohida qismalarining qanday shaklda o'sishini aniqlashadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga turli xil daraxtlardan tayyorlangan yog'och namunalarini ko'rsatiladi va tahlil qilinadi. Turli daraxtlarga tegishli ko'ndalang halqalarni kuzatib, ularning nimalarni bildirishini aniqlang.

Yakuniy yo'riqnomasi: Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi o'quvchilarni baholaydi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni biliishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Yog'och turlari haqida ma'umot bering?
2. Daraxtning qaysi qismlarida yog'och hosil bo'ladi?
3. Daraxtning yog'och to'qimalari qanday vazifalarni bajaradi?
4. Yog'ochning ko'ndalang xalqalaridan nimalarini bilasiz?
5. Daraxtning ildizidan nimalar tayyorlanadi?
6. Butasimon o'simliklar yog'ochidan nimalar tayyorlanadi?
7. Yog'ochning fizik xossalari haqida nimalar bilasiz?

5.Uyga vazifa berish:

- 1.Darslikdagi 11-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
- 2.Mavzu yuzasidan klaster tuzish
- 3.Yog'och turlarini aniqlashga qaratilgan yog'och namunalarini olib kelish.

**23-24 mashg'ulot. MAHALLIY HUDDUDA O'SADIGAN
DARAXTLAR VA ULARDAN OLINADIGAN YOG'OCH TURLARINI
O'RGANISH. YOG'OCHLARNING SIFATI VA ULARNING
NUQSONLARI**

Dars maqsadi:

Ta'limiyl: o'quvchilarga mahalliy xududda o'sadigan daraxtlar va ulardan olinadigan yog'och turlarini o'rgatish, yog'ochlarning sifatini, nuqsonlarini aniqlash bo'yicha umumiy ma'lumotlar berish;

Tarbiyaviy: o'quvchilarni texnika xavfsizligi qoidalari, yog'och turlarining turmushda va xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, sanitariya gigiyena talablariga rioya etishga, yog'och materiallarini tejamkorlik bilan ishlatishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning yog'ochlarga ishlov berish haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalilanidigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "Ro'lli o'yin", "Muammoli vaziyat" kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

"Maktab ustaxonalarida yog'ochga ishlov berishda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi, tayyor buyumlarning namunalari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, savollar banki, kompyuter, plakatlar, diapositivlar, rasmlar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xomashyo namunalar, test dasturlari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-50
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-20
- 5.Uyga vazifa berish-5

Mashg‘ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. O‘qituvchi o‘quvchilarning mehnat ta’limi haqidagi bilimlarini “Blits” savollari orqali aniqlaydi. O‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyoragarlik darajasini nazorat qiladi.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2. O‘tilgan mavzuni takrorlash.

Yog‘ochning tashqi ko‘rinishiga qarab turlari, yog‘ochlarning kamchiliklari, to‘qimalari, ko‘ndalang halqalari, ildizidan nimalar tayyorlanishi hamda yog‘ochning fizik xossalari (rangi, tovlanishi, tob tashlab eshilishi, tabiiy guli(teksturasi), hidi, namligi, nam ta’sirda bo‘kishi, quruvchanligi, zichligi, nam o‘tkazuvchanligi, issiqlik o‘tkazuvchanligi, tovush o‘tkazuvchanligi, elektr o‘tkazuvchanligi) haqidagi ma’lumotlarni aqliy hujum metodi orqali takrorlash.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo‘riqnomasi. Mahalliy hududda o‘sadigan daraxtlar va ulardan olinadigan yog‘och turlari, teksturasi va undan foydalanish, yog‘ochlarning sifatini va ularning nuqsonlarini aniqlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Ro‘lli o‘yin”, “Ishbop o‘yin”, “Bumerang” metodlaridan foydalanib tushuntiriladi.

Ushbu mavzuni o‘tishda asosiy vazifalar yog‘ochlar umumiyligi xossalari, tarkibi, tuzilishi va xossalarni ular orasidagi umumiyligi bog‘lanishlarni o‘rganishdan iborat.

Joriy yo‘riqnomasi. O‘quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma’lumotlar beriladi: Har bir daraxtning yo‘g‘ochi bir-biriga nisbatan qattiq-yumshoqligi, og‘ir-yengilligi, zichligi, turli ta’sirlarga chidamliligi, ishlov berishga qulayligi, ko‘rinishi, rangi va boshqa belgilar bilan farqlanadi.

Qarag‘ay, pixta, tilog‘och kabilardan asosan turli o‘lchamlardagi taxtalar, to‘sinlar, reykalar tayyorlanadi.

Har qanday yog‘ochning ishlatilishi uning fizik va mexanik xossalari, ishlatilish sharoitiga, miqdoriga va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.

Yog‘ochning sifatini kuzatish va sinab ko‘rish usullari bilan aniqlanadi.

Kuzatish usullari yog‘ochning sifatini belgilashdagi eng asosiy ko‘rsatkich undan tayyorlanmoqchi bo‘lgan buyum kattaligiga mos bo‘lgan sog‘lom qismi bor yoki yo‘qligini aniqlashdan iborat. Yog‘ochning ko‘ndalang va bo‘ylama qismlarini kuzatish orqali uning ichki qismlari chirimaganligi yoki boshqa turdag'i zararlanishga uchramaganligi, hamda rangi va gulorligi qanday ekanligi aniqlanadi.

Sinab ko‘rish usuli bilan yog‘ochning qattiq-yumshoqligi, zichligi, hamda xar turli tashqi ta’sirlarga chidamliligi aniqlanadi.

Yog‘ochning qattiqligini unga o‘zidan qattiq buyumlarning uchini, tig‘ini, qirrasini ma’lum miqdordagi kuchlar bilan botirib ko‘rish orqali, aniqlanadi. Bunda har bir maqsad uchun ishlatiladigan eng qulay qattiqlikdagi yog‘och sifatlari xisoblanadi.

Yog‘ochning namligi laboratoriya sharoitida asosan ikki usulda uning nam va quritilgan xoldagi oralig‘ini o‘lhash yoki namlikni o‘lchaydigan asbob elektr nam o‘lchagich yordamida aniqlanadi.

Yog'ochning nuqsonlariga zararkunandalar yetkazadigan zararlar, yog'ochni quritish va saqlash davrida har xil bo'ladigan holatlar hamda tabiiy nuqsonlar kiradi. Yog'och zararkunandalari o'sib turgan daraxtlarga va yog'och buyumlargacha zarar yetkazuvchi yog'och zamburug'lari, yog'ochxo'r qo'ng'izlar hamda yog'och kemiruvchi qo'ng'izlardan iborat.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida yog'ochlarning umumiyligini xossalarini o'rganish, yog'ochning sifatini va nuqsonlarini aniqlash.

Yakuniy yo'riqnoma: Joriy yo'riqnoma berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnoma berish paytida o'qituvchi baholar qo'yadi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Mahalliy hududda o'sadigan daraxtlarga misollar keltiring.
2. Qattiq yoki mo'rt yog'ochlardan nimalar yasash mumkin?
3. Yog'ochlarda uchraydigan nuqsonlar haqida nimalar bilasiz?
4. Yog'ochning yorilmasdan qurishi nimaga bog'liq?
5. Nima uchun yog'och buralib yoki bukilib qoladi?
6. Yog'ochni to'g'ri quritish uchun nima qilish kerak?
7. Yog'och nima ta'sirida chiriydi?
8. Yog'ochni chirishdan saqlash usullari qaysilar?
9. Yog'ochni turli kuchlarga chidamli bo'lishi nimalarga bog'liq?
10. Yog'ochni yong'indan saqlash qoidalarini aytинг?

5. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 12-mavzuni o'qib kelish.
2. Mahalliy hududda o'sadigan daraxtlarni qiyosiy tahlil qilib kelish.
3. Yog'och turlarini aniqlashga qaratilgan yog'och namunalarini olib kelish.
4. Yog'och sifati va nuqsonlarini aniqlashga qaratilgan ishlarni bajarish.

25-26 mashg'ulot. DURADGORLIK DASTGOHI, QO'L ASBOBLARINING TUZILISHI VA TURLARI, ULARDAN FOYDALANISH QOIDALARI

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yog'ochga ishlov beradigan dastgohlar, qo'l asboblarining tuzilishi va turlari, ulardan foydalanish qoidalari haqida umumiyligini xossalarini berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga texnika xavfsizligi qoidalari, yog'och turlarining turmushda va xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, sanitariya gigiyena talablariga rioya etishga, yog'och materiallarini tejamkorlik bilan ishlatsishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga yog'ochga ishlov beradigan dastgoxlar haqida ma'lumotlar berish, qo'l asboblarining tuzilishi va turlari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "B/B/B" metodi, "Toifalash" jadvali kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Maktab ustaxonalarida yog'ochga ishlov berishda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi, tayyor buyumlarning namunalari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapozitivlar, rasmlar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiyi namunalar, xom-ashyo namunalari, test dasturlari, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. O'qituvchi o'quvchilarning yog'ochga ishlov berish texnologiyasi bo'limi umumi tushunchalar qismida olingan bilimlarini "Erkin yozish" metodi orqali aniqlaydi. O'quvchilarning mashg'ulota tayyorgarlik darajasini nazorat qiladi.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash. Mahalliy hududda o'sadigan daraxtlar va ularidan olinadigan yog'och turlari, teksturasi va undan foydalanish, yog'ochlarning sifatini va ularning nuqsonlarini aniqlashga doir savol javob tarzida takrorlanadi.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin yog'ochga ishlov beradigan stanoklar va ular haqida tushunchalarni, ishlatalishi to'g'risida ma'lumotlar berish lozim. O'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlataladigan qo'l asboblarining turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va rejalash va arralash vaqtida roya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiyena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra rejalashni va arralashni mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Duradgorlik ishlarini bajarishda foydalaniladigan maxsus dastgohlar turli xil bo'lib, ular ishlov berilayotgan yog'och materiallarini kerakli xolatda mahkam tutib turish uchun xizmat qiladi.

Maktab ustaxonasidagi duradgorlik dastgohining asosiy qismi uning oyoqlariga o'rnatilgan va kerakli balandlikda mahkamlanadigan ish stolidan iborat bo'lib, u stolda tegishli kattalikdagi yog'och materiallarini ishlov berish uchun kerakli holatda mahkam o'matish uchun teshiklar ochiladi.

Qo'l asboblarining tuzilishi va turlari, ulardan foydalanish qoidalari haqida ma'lumot berish kerak.

Duradgorlik dastgohlarining tuzilishi va ishslash qonun qoidalari haqida tushunchalar berish asosida duradgorlik dastgohidan to'g'ri foydalanish usullarini mashq qilish bo'yicha amaliy ishlar bajariladi. Bunda o'qituvchi tomonidan mashqlar o'quvchilarga ko'rsatib beriladi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi o'quvchilarni baholaydi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Duradgorlik dastgohi tuzilishi haqida ma'lumot bering.
2. Duradgorlik dastgohi qismlarini sanab bering.
3. Dastgoh stolining bir qismi nima uchun chuqurlashtirilgan?
4. Dastgoh stolining balandligi qanday usulda belgilanadi?
5. Dastgohda materialni to'g'ri o'rnatish va mahkamlash qoidalariiga rioya qilish nima uchun zarur?
6. Qo'l asboblarining tuzilishi va turlarini aytib bering.
7. Qo'l asboblaridan foydalish qoidari haqida ma'lumot bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 13-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu yuzasidan krossvord tuzib kelish.
3. Qo'l asboblarining tuzilishi bo'yicha toifalang.
4. Duradgorlik dastgohida boshlang'ich ish elementlarini bajarishni mashq qiling.

27-28 mashg'ulot. O'LCHASH VA REJALASH ASBOBLARI

Dars maqsadi:

Ta'limi: o'quvchilarga o'lchash va rejalah asboblari haqida, o'lchash va rejalah asboblarida ishslash qoidalari haqida ma'lumotlar berish, o'lchash va rejalah asboblarining tuzilishi va turlarini o'rganish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda o'lchash va rejalah asboblaridan foydalanishda sanitariya gigiyena qoidalariiga amal qilishga o'rgatish, texnika xavfsizligi qoidalari, yog'och materiallarini tejamkorlik bilan ishlatishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarda o‘lchash va rejalash asboblari haqida ma’lumotlar berish, o‘lchash va rejalash asboblarining tuzilishi va turlari haqidagi ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo‘naltirish.

Foydalaniladigan metodlar: og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, “Bumerang”, “Mozaika” kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar: “Maktab ustaxonalarida yog‘ochga ishlov berishda xavfsiz mehnat qilish” o‘quv filmi, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapositivlar, rasmlar, darsliklar, metodik qo‘llanma, ma’ruza matni, lug‘atlar, ma’lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, xom-ashyo namunalari, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O‘tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg‘ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davommatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyoragarlik darajasini nazorat qilish. O‘lchash va rejalash asboblaridan namunalar keltirib qo‘yish.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2. O‘tilgan mavzuni takrorlash. Duradgorlik dastgohining asosiy qismlari, qo‘l asboblarining tuzilishi va turlari, ulardan foydalanish qoidalariga oid tushunchalardan blits savollar orqali takrorlash.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo‘riqnomasi: Darsni duradgorlik o‘quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Rejalashni mashq qildirishga o‘tishda rejalashdan ko‘zlangan maqsadni tushuntirish, o‘quvchilarga o‘quv ustaxonalarida ishlatiladigan rejalashda kerak bo‘ladigan asboblarning turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash o‘lchash va rejalash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiyena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so‘ngra rejalashni mashq qildirish haqida ma’lumotlarni berish lozim. O‘lchash va rejalash asboblaridan chizg‘ichlar, ruletmestr, qalamlar, xatkash, duradgorlik go‘niyasi, mashtabli chizg‘ich, shtangentsirkul kabilarga ta’rif berish lozim.

Joriy yo‘riqnomasi: O‘quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma’lumotlar beriladi: Yog‘ochdan turli buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish uchun yog‘och materiallarni o‘lchash va rejalash kerak bo‘ladi. Buning uchun maxsus asboblardan foydalaniladi.

O'lhash deb yog'och materialning o'lchamlarini va shaklini aniqlashni aytildi. Bu asboblarga chizg'ichlar, matr, ruletmestr, go'niyalar, xatkash transporti va o'lchov andozalari kiradi.

Rejalar deb tayyorlanadigan buyumning kerakli o'lchamlardagi shakllarini yog'och materiallariga chizishni aytildi. Rejalash uchun yuqorida aytilgan o'lhash asboblari bilan birga xatkash, qalam, har turli rejalahs operatsiyalari foydalaniladi. O'lhash va rejalahs asboblari yordamida rejalahs operatsiyalari mashq qilinadi. Xom ashyonni o'qituvchi rejalahs xolda buyum yasash uchun tayyorlashni ko'rsatib berishi lozim.

Yakuniy yo'riqnomasi: Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan hatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi o'quvchilarini baholaydi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'mnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. O'lhash deb nimaga aytildi?
2. O'lhash asboblariga nimalar kiradi?
3. Rejalash deganda nimani tushunasiz?
4. Rejalash asboblariga nimalar kiradi?
5. Chiziqlar nima uchun ishlataladi?
6. O'lchov andozalari nima uchun ishlataladi?
7. Rejalash andozalari nima uchun ishlataladi?
8. Xatkash nima uchun ishlataladi?

4.Uyga vazifa berish:

- 1.Darslikdagi 14-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
- 2.O'lhash va rejalahs asboblarini ishlash jarayonini o'rganib kelish.
- 3.Mavzu yuzasidan "VENN" diagrammasi tuzish.
- 3.Biror yog'och buyuning andozasini rejalahshtirib kelish.

29-30 mashg'ulot. ARRALAR VA RANDALAR TURLARI

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga arralar va randa turlari, ularni ishga tayyorlashni o'rgatish hamda arralar va randa turlari ularda ishlash qoidalari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: Arra va randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari o'rgatish. O'quvchilarda o'zarlo hurmat hissini shakllantirish, texnika xavfsizligi qoidalari, yog'ochni arralashda va randalashda materiallarni tejamkorlik bilan ishlatalishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Arra va randa turlari, ularni ishga tayyorlashni inobatga olgan xolda tayyorlashni o'rgatish, o'quvchilarga arralar va randalar haqida ma'lumotlar berish, arralar va randalar asboblarining tuzilishi va turlari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Kontseptual jadval", "SWOD" tahlil kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, rasmlar, savollar banki, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruba matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. Arralar va randalar, yog'och namunalarini tayyorlash.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. O'lchash va rejalash asboblaridan chizg'ichlar, ruletmestr, qalamlar, xatkash, duradgorlik go'niyasi, mashtabli chizg'ich, shtangentsirkul kabi asboblarni ishlatishga doir ko'nikma va malakalarni aniqlovchi "blits" savollar berish.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Arralar va randalarni turlari va ularni ishga tayyorlashni o'rgatishdan oldin randalash va arralashdan ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlataladigan durodgorlik randalarining turlari, tuzilishi, vazifikasi, ularni ishga sozlash va arralash hamda randalash vaqtida roya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiyena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra randalarni ishga sozlash haqida ma'lumotlarni berish lozim.

O'quvchilarga arralashni texnologik karta asosida o'rgatishda arralash tartibi va ishni boshlash usullari batartib tushuntiriladi va imkoniyat darajasida amalda ko'rsatish kerak. Arralashning turlari ularni ishlatish usullarini aytib o'tish ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Arralar. Yog'ochni arralashda qo'l asboblarining ishlatilishi. Yog'ochni arralash. Yog'och materialni arralash uchun ikki xil arradan foydalananiladi.

Yog'och tolalari bo'ylab yoki tolalar yo'nalishiga nisbatan ko'ndalangiga arralanadi. Arra turlari: dastarra yoyer, sarjinarra va shularga o'xshashlar haqida ma'lumot berish lozim.

Arralar vazifasiga ko'ra qirquvchi, tiluvchi arralash arralariga bo'linadi. Bu arralar bir-biridan tishlarining shakli bilan farq qiladi.

Yupqa materiallarni arralash uchun mayda tishli arradan foydalaniladi.

Randalar. Yog'ochdan buyum tayyorlash uchun kerakli material arralab olingandan so'ng uning sirtini tozalash, silliqlab tekislash va aniq o'Ichamga keltirish uchun randalash ishlari bajariladi. Bunda sherxebel, taxta randa, mushranda, japs randa kabi turli xil randalardan foydalaniladi.

Duradgorlik randalari vazifalariga ko'ra sirtlarni tozalash, silliqlash, tekislash maqsadida ishlatalidigan, ya'ni yog'ochga birlamchi ishlov beruvchi randalarga va maxsus randalarga bo'linadi. Bular sherxebel, taxta randa, mushranda, japs randalardan, hamda zakrov randa, chok randa, konish randa, dila randa, chorabzal randalar va boshqalardan iborat. O'quvchilarga ustaxonadagi turli arralarning qaysi ishlarni bajarish uchun ishlatalishini aniqlashga qaratilgan ko'rsatmalar berish lozim. Yog'och bo'lagi bilan xar hil turli arralash va randalash ishlarini to'g'ni bajarishini mashq qilish usullarini ko'rsatib berish kerak. Randalar bilan to'g'ni ishslash mashqlarini bajarish o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi baholar qo'yadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Arralar vazifasiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
2. Arralashda qaysi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish shart?
3. Randalash orqali yog'ochga qanday ishlov beriladi?
4. Randalar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Randaning asosiy qismlari qaysilar?
6. Randalar bilan ishslashda qaysi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish lozim?

5. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 15-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu yuzasidan muammoli vaziyat va topshiriqlar tuzish va yechimini topish. Masalan: Arralash vaqtida arra polotnosi qisilib qolsa nima qilish kerak? .
3. Arralash va randalashga oid amaliy mashqlarni ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida bajarish.

31-32 mashg'ulot. USKUNALAR, BOLTALAR

Dars maqsadi:

Ta'limi: o'quvchilarga uskunalar, bolta va teshalar turlari, ularni ishga tayyorlashni o'rgatish haqida umumiy ma'lumotlar berish, o'quvchilarga uskunalar, bolta va teshalar turlari ularda ishlatish qoidalari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga uskunalar, bolta va teshalar turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalarni o'rgatish. O'quvchilarda o'zaro hurmat hissini shakllantirish tejamkorlik bilan ishlatishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga uskunalar, bolta va teshalar turlari, ularni ishga tayyorlashni inobatga olgan xolda tayyorlashni o'rgatish, o'quvchilarda uskunalar, bolta va teshalar haqida ma'lumotlar berish, uskunalar, bolta va teshalar asboblarining tuzilishi va turlari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalilanidigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Aqliy xujum", "Kichik guruhlarga bo'lish" kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali quollar:

maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, rasmlar, chizmalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruba matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. Uskunalar, bolta va teshalar, Yod'och namunalarni tayyorlash.

Uyga berilgan vazifalarini tekshirish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Arralar va randalarning turlari va ularni ishga tayyorlash jarayoni, randalash va arralash operatsiyalari haqida savol javob qilish hamda besh minutlik esse yozish.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin uskunalar, bolta va teshalar turlari va ular qayerlarda ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish kerak. Uskunalarni turlarini aytish ularni mashq qildirishga o'tishda uskunalardan ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan yog'ochlarga ishlov berishda o'yinmokorlikda ishlatiladigan uskanalarni turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va ishlatish vaqtida rioya qilinadigan

xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiyena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra uskunlashni mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Yo'nuvchi uskunalar yordamida yo'nish yo'li bilan taxtalarning chetlariga faska chiqariladi, timoqlar rostlanadi, teshik, uyalar yo'nib kengaytirilishini aytib o'tish lozim. Uskunalarning turlari ularni ishlatish usullari, ushlashni ko'rsatib o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Yo'nuvchi uskunalar yupqa, o'yuvchi uskunalar qalin bo'ladi. Bundan qat'iy nazar, ularning eni har xil o'lchamda tayyorlanadi. Yo'nuvchi uskunalarning eni 4 mm dan 40 mm gacha, o'yuvchi uskunalarning eni 6 mm dan 20 m gacha bo'ladi.

Uskunalar bir tomonidan charxlanadi. Yo'nuvchi uskunalarning o'tkirlik (charxlash) burchagi 18-25°, o'yuvchi uskunalarning o'tkirlik burchagi 25-35° atrofida bo'ladi.

Uskunalarning dastalari zarang, qora qayin, qayrag'och, yong'oq kabi pishiq yog'ochlardan tayyorlanib, uchiga metall halqa kiydiriladi. halqlar uskunaga bolg'a bilan urishda dastani yorilishdan saqlaydi.

Yog'och materiallardan turli xil buyumlar tayyorlashda ularning qismlari ko'pincha "tirnoq" chiqarish yo'li bilan biriktirilib, bunda o'yish-teshish ishlari bajariladi. Bu maqsadda har hil duradgorlik uskunalaridan foydalaniladi.

Asbob-uskunalar va moslamalar tayyorlashda kerakli mustaxkamlikka ega bo'lgan xar hil yog'ochlar ishlatiladi. Bular bolg'a, tesha, bolta, ketmon va boshqa asboblarning dastalari, randa kundalari, narvon, gilam to'qish dastgoxi, duradgorlik dastgoxi, qo'lida turli gazlamalar to'qish dastgoxi, charxpak, aravalari, qayiq, kemalar va shu kabilardan iborat. Uskunada o'yish, bolta va teshada chopish va yo'nish mashqlarini bajarib ko'rsatish talab qilinadi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi baholar qo'yadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Uskunalar qanday turlarga bo'linadi?
2. O'yuvchi uskunalar bilan qaysi ishlar bajariladi?
3. Yo'nuvchi uskunalarini tig'i qanday shakkarda bo'ladi?
4. Kesuvchi uskunalar bilan qaysi ishlar bajariladi?
5. Uskuna bilan ishlashda qaysi havfsizlik qoidalariiga rioya qilish shart?
6. Boltalar bilan chopishning qanday turlari bor?
7. Bolta bilan chopishda havfsizlik texnikasi qoidalari.
8. Tesha bilan yo'nish usullarini aytib bering.

5. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 16-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
1. Mavzu yuzasidan "Qarorlar shajarası" jadvalini mavzuga mos holda to'ldirib kelish.
2. Uskunalar bilan o'yish, bolta va teshada yo'nish ishlarini mashq qilish.
3. Savollarga javob berish.

33-34 mashg'ulot. BOLG'ALAR VA ULARNING TURLARI: PO'LAT, YOG'OCH VA PLASTIK BOLG'ALAR VA TO'QMOQLAR

Dars maqsadi:

Ta'limi: o'quvchilarga bolg'alar va ularning turlari (po'lat, yog'och va plastik bolg'alar va to'qmoqlar), ularni ishga tayyorlashni o'rgatish haqida umumiy ma'lumotlar berish, o'quvchilarga bolg'alar va ularning turlari, ularda ishslash qoidalari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: bolg'alar va ularning turlari (po'lat, yog'och va plastik bolg'alar va to'qmoqlar), ularni ishga tayyorlash qoidalari o'rgatish. O'quvchilarda o'zaro hurmat hissini shakllantirish, texnika xavfsizligi qoidalari.

Rivojlantiruvchi: bolg'alar va ularning turlari (po'lat, yog'och va plastik bolg'alar va to'qmoqlar), ularni ishga tayyorlashni inobatga olgan xolda tayyorlashni o'rgatish, bolg'alar tuzilishi va turlari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Zig-zag", "Qora qut'i" kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: muktab ustaxonalarida ishslashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. Bolg'alar va ularning turlaridan ko'rsatishga va ishslashga keltirib qo'yish.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash. Uskunalar, bolta va teshalar turlari va ularda yog'ochlarga ishlov berish to'g'risida ma'lumotlar asosida "blits" savollar berish.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin bolg'alar va ularning turlari (po'lat, yog'och va plastik bolg'alar va to'qmoqlar) va ular qayerlarda ishlatalishi to'g'risida ma'lumotlar berish lozim.

Darsni o'quvchilarning fikrlash, konstrukturlik qobiliyatini o'stirish, mehnat madaniyatini shakllantirish, ishni mustaqil ravishda bajarib keta olishlarini ta'minlash maqsadida keyinchalik ishlarni texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish kerak.

Joriy yo'riqnomasi: o'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Yog'och qismlarni yig'ishda uskunalar yordamida o'yish-teshish ishlarni bajarishda duradgorlik bolg'alari va yog'och to'qmoqdan foydalaniladi. Duradgorlik bolg'alari kvadrat, doiraviy muhrali bo'lib, uchki qismi har xil ko'rinishda bo'ladi. Ayrim bolg'alarning uchki qismi mix sug'urishga moslangan.

Duradgorlik bolg'alarining muhrasi tekis va silliq bo'lishi, qavariq va ezilgan joylari bo'imasligi kerak. Qavariq va ezilgan muhrali bolg'alar yog'och sirtini ezib, tekisligini buzadi.

Yog'och to'qmoqlar qayrag'och, chinor, akatsiya, tut kabi qattiq, pishiq yog'ochlardan randalab yoki yog'och ishlanadigan tokarlik stanogida yo'nib tayyorlanadi.

Bolg'a va to'qmoqchani texnik rasmini chizing va ish jarayonida bolg'alash va to'qmoqlash operatsiyalarini mashq qiling. Yog'ochni o'yish texnologik xaritasi asosida yo'nish va bolg'alash ishlarni bajarib ko'rsating.

Yakuniy yo'riqnomasi. Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahsil qilinadi va tuzatiladi. Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi o'quvchilarni baholaydi (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Bolg'alar bilan qanday ishlarni bajariladi?
2. Bolg'a qaysi qismlardan iborat?
3. Bolg'alar vazniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Yog'och va plastmassa to'qmoqchalar bilan qanday ishlarni bajariladi?
5. Bolg'a va to'qmoqchalar bilan ishlashda qaysi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish shart?

6. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagi 17-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu yuzasidan "T" sxemani mavzuga mos holda tuzib kelish.
3. Bolg'alar va ularning turlari haqidagi ma'lumotni yozma tayyorlash.

35-36 mashg'ulot. EGOVLAR TUZILISHI VA TURLARI

Dars maqsadi:

Ta'limiylar: o'quvchilarga egov turlari va ularning vazifalarini o'rgatish, ularni ishga tayyorlashni o'rgatish haqida umumiy ma'lumotlar berish, o'quvchilarga egovlar tuzilishi va turlari ularda ishlash qoidalari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga egovlar tuzilishi va turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalarini o'rgatish. O'quvchilarda o'zaro hurmat hissini shakllantirish, texnika xavfsizligi qoidalari.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga egov turlari va ularning vazifalari inobatga olgan xolda buyum tayyorlashni o'rgatish, ularni ishga tayyorlashni inobatga olgan xolda tayyorlashni o'rgatish, egovlar tuzilishi va turlari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Debatlar", "Baliq suyagi" kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapositivlar, rasmlar, chizmalar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

Tashkiliy qism-5

1. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
2. Yangi mavzuning bayoni-50
3. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
4. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarining mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. Egovlar va yog'och namunalarini tayyorlash.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Bolg'alar va ularning turlari (po'lat, yog'och va plastik bolg'alar va to'qmoqlar) hamda ishlash jarayoni haqida "blits" savollar berish orqali takrorlash.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'riqnomasi: Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin egov turlari va ularning vazifalarini qayerlarda ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish. Egovlarni turlarini ularning vazifalarini aytish va ularni qayerlarda ishlatish, mashq qildirishga o'tishda egovlardan ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan egovlarning turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va egovlash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiyena

qidalar haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra randalashni mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Egovlar ham kesuvchi asboblardan hisoblanadi. Ular o'ichami va profili har xil bo'lgan hamda ish yuzasiga tishlar o'yilgan polosa, brusok yoki chiviqdan iboratdir. Egovlar profiliga, tishlarining shakliga va qanday joylashganligiga hamda o'ichamlariga qarab xilma-xil bo'ladi.

Egovlar yassi, kvadrat, uch qirrali, yarim yumaloq, yumaloq va maxsus egovlarga bo'linadi.

Egovlash orqali yog'och sirtidagi turli kattalikdagi g'adir- budirliliklar silliqlab tekislanadi. Egovlar sirti turli shakkarda hamda tishlarning shakli va kattaligi ham turlicha bo'ladi. Yirik g'adir- budirliliklarni tekislash uchun yirik tishli egovlar, maydalari uchun mayda tishli egovlar ishlatiladi. Ayrim egor sirtlarni tekislashda tegishli egor shakldagi egovlar asosiy vosita hisoblanadi. Egov bilan pardozlashning oxirida eng mayda tishli egovlar ishlatiladi. Egovdan to'g'ri va habsiz foydalanishi mashqlar davomida o'zlashtirib boriladi. Egovni qo'l bilan to'g'ri ushslash va uni egovlayotgan yog'och ustida bir tekis bosgan holda yurg'izish kerak. Egov bilan ishlashda oldin uning dastasi mustahkam o'matilganligini tekshirib olish kerak. Egovlash vaqtida qo'llar shikastlanmasligi uchun egovning dastasi tegishli yo'g'onlikdagi silliqlangan yog'ochdan tayyorlanadi. Uning ishlatishda bir qo'l bilan dastasidan mahkam ushlagan xolda yog'ochga bosib harakatlantiriladi. Egov bilan ishlaganda qo'larga ish qo'lqopni kiyib olish lozim. Egovlar bilan ishlov berish mashqlarini amaliy bajarib ko'rsatish talab qilinadi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi baholar qo'yadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'mida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi, topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Egovlash deb nimaga aytildi?
 2. Egov tishlari qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
 3. Zagatovkaga xomaki ishlov berishda qanday tishli egovlardan foydalaniadi?
 4. Qanday sirtlarni egor chiziqli sirtlar deyiladi?
 5. Qavariq va botiq sirtlar qanday egovlar bilan ishlanadi?
- 6. Uyga vazifa berish:**
1. Darslikdagi 18-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
 2. Egovlash operatsiyalarini mashq qilish va ish jarayonida qilingan xatolarni to'g'rilash.
 3. Savollarga javob berish.

37-38 mashg'ulot. JILVIR QOG'OLZALAR TUZILISHI VA TURLARI

Dars maqsadi:

Ta'limiylar: o'quvchilarga jilvir qog'ozlar tuzilishi va turlari va ularning vazifalarini o'rgatish, ularni ishga tayyorlashni o'rgatish haqida umumiy ma'lumotlar berish, o'quvchilarga jilvir qog'ozlar tuzilishi va turlari, ularda ishslash qoidalari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga jilvir qog'ozlar tuzilishi va turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari o'rgatish. O'quvchilarda o'zaro hurmat hissini shakllantirish, texnika xavfsizligi qoidalari.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga jilvir qog'ozlar tuzilishi va turlari haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalilaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "FSMU", "Davra suhbat" kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektion materiallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, rasmlar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20
5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyoragarlik darajasini nazorat qilish. Jivir qog'ozlar va yog'och namunalarini tayyorlash.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash. Egovlar tuzilishi va turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari haqidagi ma'lumotlar asosida "Zig-zag" metodi orqali takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Kirish yo'rinnomasi: Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin jilvirlash to'g'risida ma'lumotlar berish lozim. Jilvir qog'ozlar va turlarini ularning vazifalarini aytish va ularni qayerlarda ishlatish, mashq qildirishga o'tishda jilvirlashdan ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan jilvir qog'oz turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va jilvirlash vaqtida riosa qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiyena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra jilvirlashni mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Buyumlarning sirtlarini padozlashdan oldin uni jilvir qog'oz bilan ishqalab tozalanadi. Jilvir qog'oz mayda qattiq mineral yoki shisha kukuni yelimlab yopishtirilgan ip mato yoki kalit qog'ozdan iborat. Ular yirikligiga qarab dag'al, o'rtacha, mayda jilvirlarga bo'linadi.

Sirtlarni padozlashdan oldin jilvir bilan ishqalab to'g'ri chiziqliligin yaxshilash va tozalash kerak. O'tkir qirralari hamda burchaklarini egovlash va shundan keyin jilvir bilan ishvlov berish lozim.

Jilvir bir tomoniga mayda qattiq minerallar yoki shisha kukuni yelimlab yopishtirilgan ip mato yoki qalin qog'ozdan iboratdir. Ular o'z navbatida donlarining yirikligiga karab dag'al (№ 6, № 5, № 4), o'rtacha (№ 3, № 2), mayda (№ 1, № 0), padozlash (№ 00, Ld 000) jilvirlariga bo'linadi. Yog'ochga jilvir bilan ishvlov berish mashqlarini bajarishni o'rgatish lozim.

Yakuniy yo'riqnomasi: Yakuniy yo'riqnomasi berish paytida o'qituvchi baholar qo'yadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni biliishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rniда belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me'yorlansa, belgilangan me'yorda bajarishi). Bunda o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Jilvir qog'ozlar nimasiga qarab farqlanadi?
2. Jilvirlash usullarini aytib bering?

5. Uyga vazifa berish:

1. Darslikdagagi 19-mavzuni o'qib kelish va amaliy mustaqil ishlarni bajarish.
2. Mavzu yuzasidan "T" sxemani mavzuga mos holda tuzish.
3. Jilvirlash mashqlarini bajarish.
4. Savollarga javob berish.

39-40 mashg'ulot. ASBOB-USKUNA VA MOSLAMALARDAN FOYDALANISH VA TA'MIRLASH

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yog'ochga ishvlov beruvchi asbob-uskuna va moslamalardan foydalanish va ta'mirlash qoidalari haqida ma'lumotlar berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga yog'ochga ishvlov beruvchi asbob-uskuna va moslamalardan foydalanish va ta'mirlash qoidalari o'rgatish. O'quvchilarda o'zaro hurmat hissini shakllantirish, texnika xavfsizligi qoidalari.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarda yog'ochga ishvlov beruvchi asbob-uskuna va moslamalar haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Foydalaniadigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, "Nilufar guli", "Charxpalak" kabi interaktiv metodlar.

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: "Maktab ustaxonalarida yog'ochga ishvlov berishda xavfsiz mehnat qilish" o'quv filmi,

tayyor buyumlarning namunalari, 5-7 sinflar uchun mehnat talimi jadvallari, maktab ustaxonalarida ishlashdagi xavfsizlik texnikasiga oid jadvallar, namuna materiallar, proektsion materiallar, videomateriallar, elektron materiallar, kompyuter, plakatlar, diapositivlar, rasmlar, darsliklar, metodik qo'llanma, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar, test materiallari, topshiriq kartochkalari, anketalar, tabiiy namunalar, savollar banki, mustaqil bajarish topshiriqlari.

Reja:

1. Tashkiliy qism-5
2. O'tilgan mavzuni takrorlash-10
3. Yangi mavzuning bayoni-50
4. Yangi mavzuni mustahkamlash-20

5. Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyoragarlik darajasini nazorat qilish. Duradgorlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va moslamalardan namunalarni tayyorlash.

Uyga berilgan vazifalarni tekshirish.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Jilvir qog'ozlar tuzilishi va turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari haqidagi ma'lumotlar asosida blits savollar berish va takrorlash.

3. Yangi mavzuning bayoni.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Qo'l ishlarini o'rganish davrida o'qituvchi o'quvchilarga quyidagilami o'rgatishi kerak: ish o'rnnini tashkil etish; turli materiallarga moslab ignalar va iplar nomerini aniqlash va ularni tanlash; igna, angishvona, qaychi va boshqa qo'l asboblarini ishlata bilish; vaqtincha va doimiy puxtalaydigan qaviq va choklarni tikish usullarini bajarish va ularga bo'lgan texnik talablarga rioya qilish; bir turli va har xil gazlamalar to'g'ri qirqimlarini bir-biriga, qiya qirqimlarni to'g'ri qirqimlariga har xil choclar bilan ulyash; choc kengligini, qaviq yirikligini, ustki va ostki gazlamalardagi solqi miqdorini ko'zda chamalab aniqlashni rivojlantirish; tikuvchilik ishlab chiqarishi terminologiyasini to'g'ri ishlatalish, "Qo'l ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar" GOSTidan foydalana bilish; qo'l ishlar o'rniда mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

Tikuvchilik buyumini tayyorlash jarayonida o'tirib va turib bajariladigan qo'l ishlar haqidagi ma'lumot, qo'lida bajariladigan ishlarga (gazlamani qirqish, gazlamaga naqsh gullari tikish, ignaga ip qadash va h.k.) va ish o'rnlari ga qo'yiladigan talablar maxsus plakatlar va rasmlar orqali hamda kompyuter texnologiyasi asosida tushuntiriladi. Mashinada va qo'lida bajariladigan ishlar uchun ish o'rnlarini to'g'ri tashkil etish yo'llari amalda ko'rsatib beriladi. Dars jarayonida interfaol usullardan foydalaniлади.

Har bir dars rejasini tuzayotganda o'qituvchi ish dasturiga amal qiladi, dasturdan foydalanishda darslar ketma-ketligini inobatga olishi zarur. Darslar mavzuini boshlash oldidan o'qituvchi qo'l ishlarini bajarish uchun kerakli asboblarni tanlab qo'yadi (namuna sifatida o'zi uchun va mashq qilishga har bir o'quvchi uchun); furnitura (har xil nomerli iplar, ignalar, temir ilgak va temir izmalar, knopkalar, uqlar), turli artikuladagi gazlama parchalari, qaychilar bilan mashq qilish uchun gazlama; ko'rgazmali qurollar, qaviq va choc namunalari ko'rsatilgan albbom, turli qaviqlar, choclar va kiyim detallari ko'rsatilib, o'quvchilarga tarqatiladigan material, o'tilayotgan qaviq va choclar ishlataladigan tayyor kiyimlar; qaviqlarni va choclarni tikayotganda ish usullarini namoyish qilish uchun yo'l-yo'riq kartalari, diafilbmlar va hokazo.

Qo'l ishlarini bajarishda ishlataladigan asbob-uskunalariga quyidagilar kiradi: qo'l ignalari qaychi, angishovna, santimetrlı lenta, maneken, pichoqli halqa, dukcha, to'nog'ich, chizg'ich, iz tushirgich, bo'r. Bu asbob-uskunalaridan o'quvchilar foydalanishlarida xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilishlari zarur.

Gazlamadagi iplar chalishuvining tugallangan sikli baxya deyiladi. Qo'lida solingen baxya halq tilida qaviq deb yuritiladi. Bir necha ketma-ket takrorlangan baxyalardan baxyaqator, qaviqlardan esa qaviqqator hosil bo'ladi. Kiyim tikishda asosan qo'l choclar detallarni vaqtincha birlashtirish uchun va butunlay qoldirish uchun tikiladi. Oddiy qo'l choclariga quyidagilar kiradi:

1. Vaqtincha birlashtirish uchun to'g'ri ko'klash qavig'i.
2. Yo'rma qaviq.

3. Solqi qaviq.
4. Iroqsimon biriktirma qaviq.

O'quvchilarga qo'l choklarini tikish qoidalari eslatib o'tiladi. Shuningdek, o'quvchilarga bezak choklar: suv choki, iroqsimon chok, yo'rma chok, zanjir choklar haqida ma'lumot berish ham mumkin.

Bezak choklari. *Suv chok.* Bu chok bir-birga zinch joylashgan qator qiya qaviqlardan iborat bo'ladi. Bu chokni chapdan o'ngga tomon yoki o'zidan oldinga qaratib yo'naltirib tikish mumkin, oldinga o'tadi.

Suv chokni tikayotganda ip doimo bir tomonda - chapda yoki o'ngda bo'lishi kerak. Tikayotganda ip yo'nalishini o'zgartirib bo'lmaydi, chunki chok strukturasi buzilib qoladi.

Iroqsimon chok. Gazlamadan sug'urib chiqarilgan ikkita ip izi bo'ylab yoki ixtiyoriy konturli kashta gulining motividan tikiladi. Chokning tekis yo'li katta murakkab kashtalarini tikishda qo'shimcha chok sifatida, shuningdek, gazlama bo'laklarining ulangan chokini yashirish uchun tikiladi. Bunda kashta gulining goh u, goh bu tomoniga navbatma-navbat igna sanchib, qaviqlar chapdan o'ngga tomon joylashtirib boriladi.

Yo'rma chok. Bu chok ba'zan ziy chok ham deyiladi, chunki bu chok bilan gazlamaning chetlari tikiladi. Gazlamani teskari tomoniga 3-4 sm bukib, gazlama rangidagi ip bilan ko'klab chiqiladi. Yo'rma chok qaviqlari chapdan o'ngga tomon gazlama ziyiga perpendikulyar joylashtirib tikiladi. Bu choklar gardishsiz tikiladi.

Zanjir chok. Bunda chok bir-birining ichidan chiqib keladigan uzlusiz qator halqalardan iborat buladi. Bu chokni gardishda va gardishsiz tikish mumkin. Ikkala holda ham ignani o'zi tomon yuritib qaviq tushiriladi.

25-26 mashg'ulot: AMALIY MASHG'ULOT: Qo'l choklaridan namunalar tayyorlash. Ushlagich tayyorlash. Dazmollash usullari.

Dars maqsadi:

Ta'limi: O'quvchilarga qo'l choklaridan namunalar tayyorlash, qo'l choklaridan foydalanib ushlagich tayyorlashni o'rgatish. Shuningdek, dazmollash usullari, bajarilgan qo'l choklariga namlik- issiqlik ishlovi berishda dazmoldan to'g'ri foydalanish qoidalarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni estetik didlarini o'stirish va qo'lda tikish sifatiga, tikishning har xil usullaridan foydalanishga jalg qilish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda qo'l choklarini hamda dazmollash usullarini to'g'ri bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Dars tipi: Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, amaliy, aqliy hujum, ko'rgazmali, muammoli ta'lif

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali quollar:

Qo'l choklaridan namunalar, qo'l choklarga doir plakatlar igna, ip, sm lenta, har xil namunalar, dazmollash usullari plakati.

Foydalilanligidagi metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O‘tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg‘ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uyga vazifa berish-5

Mashg‘ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini “blits” savollari orqali aniqlaydi.

2.O‘tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o‘tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Namlik-issiqlik ishlovi berish uskuna va moslamalari: turli og‘irlilikdagi dazmollar, purkagichlar haqida slaydlar orqali ma’lumot beriladi. Bunda slaydlardan foydalaniлади. Dazmol bilan ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariiga rioya qilish yo‘llari, dazmoldan foydalinish qoidalari munozara tarzida, dazmollah usullari: yotqazib dazmollah, yorib dazmollah, cho‘zib yoki kirishtirib dazmollah va h.k. yo‘llari ko‘rgazmali tarzida tushuntiriladi va bosqichli tarzida slaydlar namoyish qilinadi. O‘quvchilar qo‘l choklarini va ushlagichni texnologik xarita orqali amalda bajarib ko‘radilar. O‘quvchilar tayyorlagan qo‘l choklari namunalariга va ushlagichga namlik-issiqlik ishlovi beradilar. Mashg‘ulot musobaqa tarzida amalga oshiriladi va tayyorlangan namunalardan ko‘rgazma uyushtiradilar.

Amaliy mashg‘ulot. Qo‘l choklarini bajarish

Asbob va materiallar: ish qutisi, namuna tayyorlash uchun gazlama, maxsus chizg‘ich, bo‘r, qaychi, igna, ip.

Qo‘l choklarini bajarish uchun 5x8 sm o‘lchamdagи gazlama bo‘laklari 7 dona bichib olinadi. Bunda chizg‘ich, bo‘r, qaychidan foydalaniлади. O‘quvchilarga qo‘l choklarini bajarish tartibi tushuntirilib, ularga qo‘l choklarning bajarilish texnologiyasi tarqatiladi. Bajarilgan ishlar albbomga yopishtiriladi.

Ushlagich tayyorlash. Asbob va moslamalar: ish qutichasi, ushlagich uchun gazlama (16x31 sm), chizg‘ich, qalam, igna, ip.

Ushlagichni tayyorlash texnologik xaritasi 2-jadvalda berilgan

Buyumlarni sifati va tashqi ko‘rinishi ko‘p jihatdan tikish jarayonidagi, hamda pardozlashdagi namlab-isitishga bog‘liq bo‘ladi. Namlab-isitib ishlov berishdan asosiy maqsad buyum bo‘laklariga hajmiy-fazoviy shakl berish va har xil choklarni ishlash, uzil-kesil pardozlash, bo‘laklarni yelim bilan biriktirishdan iborat. Dazmollah stollari yordamida namlik-issiqlik ishlovi berish ishlari bajariladi. Dazmolda ish bajarish uchun ish o‘rnı 3-jadvalda berilgan

O‘qituvchi elektr dazmolda ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan o‘quvchilarni yana bir bora tanishtirib o‘tadi.

Dazmolni bekorga yoqilgan holda qoldirmaslik, bunday qilingan hollarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar haqida rahbar gapirib berishi lozim.

Tikuvchilik buyumlarini namlab-isitib ishlov berish deganda, detal yoki buyumni maxsus jihozlar yordamida namlik, issiqlik va bosim bilan maxsus ishlash tushiniladi. Kiyim tikishda namlab - isitib ishlov berish ishning taxminan 15-25 % ni tashkil etadi.

Namlab - isitib ishlov berish kiyimlarni tikish jarayonida va tayyor buyumni pardozlashda (uzil-kesil) bajarilishi mumkin.

Namlab-isitib ishlov berishda qo'llaniladigan jihozlar elektr, elektr-bug' va bug' bilan qizdirilishi mumkin.

Gazlama va materiallarni namlab-isitib ishlov berish rejimlari qo'llanadigan jihozlarga bog'liqdir. Lavsanli gazlamalar uchun dazmullanadigan sirtqi qizdirish temperaturasi gazlamalarning termofikasiyasini hisobga olib berilgan. Agar dazmolmato ishlatiladigan bo'lsa, dazmullanadigan sirtni qizdirish temperaturasi 5-10° S oshirilishi mumkin. Dazmollah operasiyalarida 2,4,6 kg massali dazmollar ishlatiladi.

Namlab - isitib ishlov berishda ryoja qilinadigan texnik shartlar

Namlab-isitib ishlov berish operasiyalarini bajarishda quyidagi shartlarga ryoja qilish lozim.

1. Agar kiyim hali yaxshi tanish bo'limgan yangi gazlamadan tikilgan bo'lsa, rangini aynitmasdan va pishiqligini pasaytirmaslik uchun avval kichik bo'lagini dazmollab ko'rish kerak.

2. Dazmolmato qo'yishdan oldin bo'laklar yoki tayyor kiyimlar purkagich yordamida ho'llanadi. Namlanganda dog' qoladigan gazlamalardan tikilgan bo'laklar namlanmaydi.

3. Dazmollah gazlamadagi nam butunlay ketguniga qadr davom ettiriladi.

4. Chok chizig'i qiyshayib ketmasligi uchun uni qirqimlar zinch yotib qolgunga qadar yorib dazmollah darkor.

5. Bo'laklarning ag'darma chok solingan va ag'darilgan chetlarini dazmollab yupqalashtirishdan avval namlab olish va nami butunlay ketgunga qadar dazmollah lozim, dazmollah paytida chetlarini to'g'rilab va qiyshiq joylarini tekislab turish kerak.

6. Kiyimlarni o'ngidan dazmollahda dazmolmato ishlatiladi, teskarisidan dazmollahda esa - ishlatilmaydi. Yoqa ostki yoqa tomondan, bort adip tomondan, qaytarmalar kiyim old bo'lagi tomondan, manjetlar ostki manjet tomondan, belbog'lar ostki belbog' tomondan, etaklar etak bukish haqqi tomondan dazmollah yupqalashtiriladi. Ust kiyimda elka choklari eng qiyalari dazmollah yupqalashtiriladi, o'ngidan maxsus presslarda bug'lanadi.

7. Choklarning, bo'laklarning chetlarini va taxlamalarini yorib dazmollah, dazmollah yotqizish, dazmollah qotirish ishlarini movut qoplangan va oq ip gazlama stolida yoki maxsus qoliplarda bajarish kerak.

8. To'q ko'k, favorang, och kulrang va oq rangli gazlamalarni namlab-isitib ishlov berishda ayniqla ehtiyyot bo'lish zarur, chunki bunday ranglarni olish uchun ishlatiladigan bo'yoqlar yuqori haroratlari ta'sirida juda sezgir bo'ladi.

9 Har bir gazlama uchun namlab-isitib ishlov berish rejimlari belgilangan. Detal va kiyimlarni namlab-isitib ishlov berishda shu rejimlarga rioya qilish kerak, aks holda yaltiroq joylar paydo bo'ladi, kirishadi, tuklari kuyadi, rangi aynaydi va hakozo.

Namlab - isitib ishlov berish sifati ko'p jihatdan jihozlar holatiga bog'liq.

O'quvchilarga uyg'a quyidagichatopshiriq berilishi mumkin:

- 1) Quyidagi savollarga javob yozish:
 - 1) Ushlagichni qanday bosqichlarda tayyorlanadi?
 - 2) Namlik-issiqlik ishlovi berish moslamalariga nimalar kiradi?
 - 3) Namlab isitib - ishlov berish atamalarini izohlang.
 - 4) Elektr dazmolda ishlashda qanday xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinadi?
 - 5) Qo'l choklarining turlari va ularni bajarish tartibini izohlang.

27-28 mashg'ulot: QO'L YURITMALI TIKUV MASHINASINING ASOSIY TUZILISHI VA ISHLASH TARTIBI. TIKUV MASHINASINI ISHGA TAYYORLASH. MASHINADA IPSIZ TIKISH.

Dars maqsadi:

Ta'limiylar: O'quvchilarga qo'l yuritmali tikuv mashinasining asosiy tuzilishi va ishslash tartibi, tikuv mashinasini ishga tayyorlash hamda mashinada ipsiz tikish texnologiyalari haqida bilimlar berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni tikuv mashinasi bilan ishslash qoidalariga amal qilishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarga tikuv mashinasini ishga tayyorlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars shakli: nazariy va amaliy mashg'ulot

Dars metodi: og'zaki, amaliy, ko'rgazmali, muammoli ta'lim, aqliy xujum

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Tikuv mashinalariga doir plakatlar, slaydlar, qo'l yuritmali tikuv mashinasini ishga tayyorlash texnologik xaritasi, tikuv mashinasi.

Foydalilaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "Blits" savollari "Daraxt gul", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorlarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O‘tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o‘tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O‘quvchilarga qo‘l yuritmalı tikuv mashinasini haqida texnika vositalaridan foydalanib qisqacha ma’lumot beriladi. Qo‘l mashinasining asosiy qismlari va tuzilishi plakat yoki kompyuter orqali tushuntiriladi. Shuningdek, tikuv mashinasidan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari o‘rgatiladi. Bu vaqtida muammoli ta’lim va aqliy xujum metodlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga ko‘proq qiziqtirish mumkin. Tikuv mashinasini ishga tayyorlashni o‘qituvchi tikuv mashinasini orqali ko‘rgazmali tarzida namoyish qiladi. Bu vaqtida o‘quvchilar bilan savol-javob uyuştirish mumkin.

Dars o‘tish yuzasidan nazariy ma’lumotlar

Hozirgi kunda tikuv mashinalarining turli tumanlari mavjud bo‘lib, ularning ishga tushirilishiga qarab uch turga ajratish mumkin:

1. Qo‘l yuritmalı tikuv mashinalari;
2. Oyoq yuritmalı tikuv mashinalari;
3. Elektr yuritmalı tikuv mashinalari;

Qo‘l yuritmalı tikuv mashinasining tuzilishi. Tikuv mashinasining qismlari va asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat: platforma, baxya rostlagichi, qo‘l yuritma korpusi, ip o‘ragich, maxovik, tana, ip tortgich, tepkini ko‘taruvchi richag, yuqori ipni rostlagich, igna yuritgich, moki moslamasi, qisish tepkisi, igna plastinkasi, platforma qutisi.

Tikuv mashinasida ishlaganda bir qator *sanitariya-gigiyena va xavfsizlik texnikasi talablariga* amal qilish kerak.

Baxya rostlagich. Tikuv mashinasida baxya ustki va ostki iplarning o‘zaro birikishidan hosil bo‘ladi. Agar ikkala ip to‘g‘ri rostlansa, baxya to‘g‘ri chiqadi va chiroyligi bo‘ladi. Baxya rostlagichini mashinani ishga tayyorlashda tikilayotgan gazlamaning qalin va yupqaligiga qarab baxyaning uzunligiga to‘g‘irlanadi. Baxyanening uzunligi gazlamaning turiga va baxyanening belgilanishiga bog‘liq.

Yupqa gazlamalar mayda baxyada, qalin va qattiq gazlamalar yirik baxyada tikiladi. Baxyanening uzunligi shkalada ko‘rsatilgan raqamlar bilan belgilanadi. Shkala bo‘yicha richag nolda turgan bo‘lsa, umuman baxya tikilmaydi. Baxya rostlagichi mashinalarning markasiga qarab har xil bo‘ladi.

Ustki ipning rostlagichi. Tikuv mashinalarida ustki va ostki iplar birlashib, baxya hosil qiladi. Ustki ip shaybalar orasidan, ostki ip esa prujina tagidan o‘tadi. Baxya tarang va bo‘sish bo‘lishi kerakligiga qarab rostlanadi.

Ostki ipning rostlagichi. G‘altakdag‘i ipni naychaga bir tekis, silliq o‘ralsa, baxya to‘g‘ri tikiladi. Naychadagi ip mokining prujina plastinkasi orasidan chiqadi. Prujina korpusga vint bilan mahkamlangan. Ostki ipni rostlash vintni bo‘shatish (mahkamlash) hisobiga bajariladi.

Vertikaliga

1. Tikuv mashinasining turi (qo‘l yuritma)
2. Tikuv mashinasining qismi (tana)
3. Ostki ip moslamasi (moki)

4. Qo'lida tikish asbobi (igna)

Gorizontaliga

1. Tikuv mashinasi qismining katta bo'lagi (platforma)
2. Qo'l yuritma qismlaridan biri (richag)
3. Tikuv mashinasining qismi (tayanch qismi)
4. Harakatni uzatuvchi g'ildirak (maxovik)

29-30 mashg'ulot: AMALIY MASHG'ULOT: Mashinada ishlash qoidalar. Mashinada ipsiz tikish. Mashinaga ip o'tkazish. Biriktiruvchi, ziy va bezak choklarini tikish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga mashinada ishlash qoidalarini, mashinada ipsiz tikishni, mashinaga ip o'tkazishni, biriktiruvchi, ziy va bezak choklarini tikish texnologiyasini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni tikuv mashinasi bilan ishlash qoidalariga amal qilishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarga tikuv mashinasida ishlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot

Dars metodi: og'zaki, amaliy, munozara, ko'rgazmali, musobaqa metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Tikuv mashinalariga doir plakatlar, slaydlar, qo'l yuritmali tikuv mashinasini ishga tayyorlash texnologik xaritasi, tikuv mashinasi, biriktiruvchi, ziy va bezak choklariga doir plakat va slaydlar.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gulii", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 5.Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga mashinada ishlash qoidalari plakat orqali tushuntiriladi. Bu vaqtida o'quvchilar orasida munozara uyuşdırish mumkin. Mashinada ipsiz tikish

yuzasidan musobaqa uyuştırıldı. Ipsiz tikish bo'yicha musobaqa tashkil etish mümkün. Bunda har bir tikuv mashinasiga 2 nafardan o'quvchini biriktirib, ular mashinada ketma-ket tikadilar. Bu vaqtida o'quvchilar ipsiz tikish uchun ketgan vaqt va bajargan ishining sifati e'tiborga olinib g'olib aniqlanadi.

Ostki va ustki iplarni taqish yo'llari slaydlar yordamida namoyish qilinadi. Mashina chok turlarini bajarish amalda ko'rsatib beriladi, munozara uyuştırıldı. Dars oxirida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan mashina choklari bo'yicha ko'rgazma tashkil etish mumkin.

O'quvchilarga uya topshiriqlar beriladi

1. O'tilgan mavzu yuzasidan 10 ta test savollari ishlab chiqish.
2. Mavzu yuzasidan savol-javoblarga tayyorgarlik ko'rish.

31-32 mashg'ulot: BICHISH VA TIKISH HAQIDA MA'LUMOT

Dars maqsadi:

Ta'limiylar: O'quvchilarga bichish va tikish haqida, ko'ylak modellari haqida bilimlar beriladi.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni did bilan kiyinishga amal qilishga odatlantirish.

rivojlantiruvechi: O'quvchilarda doimo kiyim modellarini vazifasiga qarab kiyinish yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Yangi bilimlarni berish.

Dars shakli: Nazariy mashg'ulot

Dars metodi: og'zaki, munozara, ko'rgazmali, muammoli ta'lim metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Vazifasiga qarab turli-tuman kiyim modellarini yuzasidan plakatlar, slaydlar, kiyim namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalananiladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 5.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uya vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga kiyimning turli modellarini vazifalariga qarab bo'linishi, model esklizlari plakatlar va slaydlar orqali tushuntiriladi. Bu vaqtida o'quvchilar orasida

munozara uyuşdırısh mumkin. Uy kiyimlari modellari eskizlarini daftarga chizish orqali o'quvchilarda kiyimga gazlama va rangi to'g'ri tanlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

Fartuk va bog'ichli qalpoqcha uchun kerakli o'lchovlarni gavdadan olish ketma-ketlikda slayd orqali tushuntiriladi.

Dars oxirida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan eskizlar bo'yicha ko'rgazma tashkil etish mumkin.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

1. O'tilgan mavzu yuzasidan krossvord tuzish.
2. Turli vazifalarga mo'ljallangan kiyim modellari eskizlarini chizish.

33-34 mashg'ulot: FARTUK VA BOG'ICHLI QALPOQCHA CHIZMASINI CHIZISH.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga bolalar fartugi va qalpoqchalar chizmasini chizish yuzasidan bilimlar beriladi.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni bolalar fartugi va turli modeldag'i qalpoqchalar chizmasini chizishda tez va sifatli bajarishga odatlantirish.

Rrivojlantiruvchi: O'quvchilarda yoshiga mos keladigan fartuk va qalpoqcha modellarini tanlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Yangi bilimlarni berish.

Dars shakli: Nazariy mashg'ulot

Dars metodi: og'zaki, munozara, ko'rgazmali, chizma chizish metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Bolalar fartugi va turli qalpoqchalar chizmalari plakatlari, slaydlar, kiyim namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalilanidigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul'i", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 5.Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Texnika vositalaridan foydalaniib qalpoqcha-ro'mol, bog'ichli qalpoqcha va ayvonchali yozgi qalpoqcha eskizlari namoyish qilinadi. Bu bosh kiyimlarning

chizmalarini qurish uchun hisoblash jadvali tuziladi, jadval asosida buyumlar chizmasini o'qituvchi doskada masshtab 1:1da, o'quvchilar esa daftarda masshtab 1:4 da quradilar. Chizish davomida o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini nazorat qilib turadi. Xato va kamchiliklarni yo'l-yo'lakay bartaraf etib boradi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda istalgan modeldagi fartuk va qalpoqcha chizmasini masshtab 1:1 da chizish topshiriladi.

35-36 mashg'ulot: FARTUK VA BOG'ICHLI QALPOQCHANI MODELLASHTIRISH VA ANDOZASINI TAYYORLASH

Dars maqsadi:

Ta'limi: O'quvchilarga fartuk va bog'ichli qalpoqchani modellashtirishni va ular uchun andoza tayyorlashni o'rgatish..

Tarbiyaviy: O'quvchilarni bolalar fartugi va turli modeldagi qalpoqchalar turli modellari chizmasini chizishda, modellashtirishda tez va sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda yoshiga mos keladigan fartuk va qalpoqcha modellarini tanlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Kombinasiyalashgan dars.

Dars shakli: Nazariy va amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, ko'rgazmali, chizma chizish metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Bolalar fartugi va turli qalpoqchalar chizmalarini plakatlari, slaydlar, kiyim namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 5.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 6.Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Qalpoqcha-ro'mol, tasmali qalpoqcha va ayvonchali yozgi qalpoqcha, bolalar fartugi va ko'krakpech qismi yaxlit bo'lgan fartuk uchun andozalarni tayyorlash uchun o'quvchilar andoza qog'ozlaridan foydalanadilar. Avval buyumning chizmasini masshtab

1:1 da chizadilar, so'ngra buyumning andozasini tayorlaydilar, ya'ni har bir detalda chok haqlarini, kertimlarini qo'yib chiqadilar. Andozani qoidali qilib to'ldiradilar, ya'ni andozada buyumning nomi, razmeri, buyum detalining nomi, detalning soni yoziladi va andoza qirqib olinadi. O'quvchilar bu ishlarni bajarayotganlarida o'qituvchining nazoratida bo'ladilar.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Modellash - bu turli shakl va bichimdagи kiyim modyelining loyihalasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Turli shakl va bichimdagи modalar loyihalasini tuzmoqchi bo'lgan asosiy loyihalash bazasidan olish mumkin. Bu jarayon amaliy modellash yoki, odatda aytishiga binoan, texnik modellash deb ataladi. Texnik modellash loyihalash asosini yangi model loyihasiga aylantirishdan iborat.

Modelning fasoni modalar jurnalidan olinadi yoki ijrochining rasm chizib ko'rsatgan taklifiga ko'ra tanlanadi. Kiyimning modelga xos xususiyatlari, ya'ni vitochkalar, koketkalar, bo'rtma choklarning holati; bo'ksa, bel, etak, bort, taqilma chiziqlari; cho'ntaklar, yoqa, burma chiziqlari tegishli detallar loyihalashsi asosining chizmasiga ko'chiriladi.

Model chiziqlarining hammasini loyihalash asosining chizmasida xuddi model rasmidagidek j oylashtirilishi kerak. Bunda ayolning gavda tuzilishining xususiyati, uning mutanosibligi albatta hisobga olinishi kerak. Bu loyihalash asosining chizmasiga tushirilgan fason chiziqlari gavdaning haqiqiy mutanosibligini buzib qo'ymasligi uchun kerak.

Fason chiziqlarini bichimi mos keladigan loyihalash asosining chizmasiga tushiriladi. Masalan, modelning englari old va ort bo'laklar bilan yaxlit bichiladigan bo'lsa, bunda texnik modellash englari old va ort bo'laklar bilan yaxlit bichiladigan loyihalash asosining chizmasida bo'lishi kerak va hokazo.

Ishlash uchun hamma asosiy detallar loyihasining baza bo'ladijan asosini qog'oz yoki karton andoza - shablon tarzida tayyorlab olinadi. Bu andozalarga zarur bo'lgan simmetriya chiziqlari - ko'krak chizig'i, bel chizig'i, bo'ksa chizig'i tushiriladi.

Fasonga binoan detalning yangi shaklini detal andozani shartli bo'laklarga bo'lib, keyin u bo'laklarni surib asosiy vitochkalarni berkitish va ularni yangi holatga ko'chirish yo'li bilan hosil qilinadi.

Kiyim detallari andoza bo'yicha bichiladi. Andozaning barcha detallari juftlashtirilib bir-biriga ulanadigan zihlarining o'zaro mos kelishi tekshiriladi; bunda asos chiziqlaridan arzimagan darajadagina chetga chiqishga yo'l qo'yiladi. Shu tarzida aniqlangan chizmalarda choklarga hamda kiyim etagini bukish uchun qabul qilingan texnologik va texnik shartlarga muvosiq chok haqi belgilanadi.

Kiyim detallarining chetlarini tug'ri va aniq ularsh mumkin bo'lishi uchun, andozalarni tayyorlagan vaqtida kertiklar qilinadi. Andozalar ishlab chiqilgandan keyin detallarining juftlashtiriladigan konturlari tekshirib ko'rildi.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda istalgan modeldagi fartuk va qalpoqcha andozasini masshtab 1:1 da chizish topshiriladi.

37-38 mashg'ulot: FARTUK VA BOG'ICHLI QALPOQCHASINI BICHISH. BOG'ICHLI QALPOQCHANI TIKISH

Dars maqsadi:

Ta'limi: O'quvchilarga bog'ichli qalpoqchani bichish, tikish va namlik issiqlik ishlovi berishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni bog'ichli qalpoqchani bichish va tikishda tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda qalpoqchalarni turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, ko'rgazmali, musobaqa metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Bog'ichli qalpoqchani bichish va tikish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, qalpoqcha namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 5.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 6.Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bichish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, qalpoqchalarni tikish va ularni bezashda turli bezak detallaridan foydalanib turlichcha bezash yuzasidan musobaqa tarzida amalga

oshirish mumkin. Dars yakunida guruhlар bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhni yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

O'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan krossvord tayyorlab kelishni topshirish mumkin.

39-40 mashg'ulot: FARTUKNI TIKISH

Dars maqsadi:

Ta'limiylar: O'quvchilarga yaxlit bichiqli fartukni bichish, tikishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni yaxlit bichiqli fartukni bichish va tikishda tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda fartukni turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, ko'rgazmali, musobaqa metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Yaxlit bichiqli fartukni bichish va tikish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, fartuk namunalari, o'quv qurollari, kompyuter.

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 5.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 6.Uyga vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Bichish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni amaliy ish bajarish vaqtida ularga kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalarni berib borish, ishlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilib borish zarur. Dars yakunida o'quvchilar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va to'g'ri, tez va sifatli bajargan o'quvchilarga yuqori baholarni qo'yib rag'batlanirish mumkin.

Dars mashg'uloti yuzasidan nazariy ma'lumotlar

Ko'krakpech qismi yaxlit bo'lgan fartuklarni bichish uchun ishlataladigan gazlamalarni bichishga tayyorlanadi, ya'ni gazlamaning bo'yvi va eni belgilanadi, gazlamaning gullariga e'tibor beriladi. Gazlamaning o'ngini-o'ngiga qilib bo'y ipi bo'ylab ikkiga buklanadi va ko'krakpech qismi yaxlit bo'lgan fartuklarning andozalari tejamkorlik bilan gazlamaga joylashtiriladi va bichiladi. Bichilgan detallar tekshiriladi.

Fartukni tayyorlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Fartukni bichish.

2. Fartuk qismlarini tikishga tayyorlash va tikish.
4. Fartuk qismlarini birlashtirish va bezash.
5. Fartukka oxirgi ishlov berish.

O‘quvchilarga uya topshiriqlar beriladi

O‘quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan texnologik xarita tuzib kelish topshiriladi.

41-42 mashg‘ulot: BOG‘ICHNI VA BELBOG‘NI TIKISH

Dars maqsadi:

Ta’limiy: O‘quvchilarga bog‘ichni va belbog‘ni tikishtikish va tikilgan hoklariga namlik issiqqlik ishlovi berishni o‘rgatish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni bog‘ichni va belbog‘ni tikishda tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarda fartukni turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg‘ulot.

Dars metodi: og‘zaki, munozara, ko‘rgazmali, musobaqa metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar:

Ko‘krakpech qismi yaxlit bo‘lgan fartukni tikish bo‘yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, fartuk namunalari, o‘quv qurollari, kompyuter

Foydalilanidigan metodlar: og‘zaki, ko‘rgazmali, “Blits” savollari “Daraxt guli”, “Aqliy hujum” kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O‘tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg‘ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uya vazifa berish-5

Mashg‘ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini “blits” savollari orqali aniqlaydi.

2.O‘tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o‘tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Fartukni tikish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, fartukning etak qismini tikish va ularni bezashda turli xil bezak detallaridan foydalanib turlich ra yuzasidan musobaqa tarzida amalga oshirish mumkin. Dars yakunida

guruqlar bajargan ishlarni stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhi yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

Fartukning etak qismiga bukib, qiya tasma, to'r yoki burma bilan ishlov berilsa uning qoplama cho'ntagiga ham ahamiyat berish kerak, chunki qoplama cho'ntakka ham xuddi shunday ishlov berish kerak. Tikish ishlari avval qo'lida ko'klab olinib, so'ngra mashinada baxyaqator yuritiladi. Buyumning tikilgan choklariga namlik-issiqlik ishlovi beriladi.

O'quvchilarga uyg'a topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan texnologik xarita tuzib kelish topshiriladi.

43-44 mashg'ulot: KO'KRAK QISMINI TIKISH. QOPLAMA CHO'NTAK TIKISH

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga yaxlit bichiqli fartukni bo'yin o'mizini tikishni va tikilgan choklariga namlik issiqlik ishlovi berishni o'rgatish.

Tarbiyiyiv: O'quvchilarni yaxlit bichiqli fartukni bo'yin o'mizini tikishda tez hamda sifatlari bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda fartukni turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, ko'rgazmali, musobaqa metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Ko'krakpech qismi yaxlit bo'lgan fartukni tikish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, fartuk namunalari, o'quv qurollari, komputer

Foydalilaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "Daraxt gul'i", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Fartukni bo'yin o'mizini tikish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalaniш, ya'ni kompyuterda mavzuga oid slaydlami bosqichli tarzida namoyish qilish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, fartukning

bo'yin o'mizi qismini tikish va ularni bezashda turli xil bezak detallaridan foydalanib turlicha bezash yuzasidan musobaqa tarzida amalga oshirish mumkin. Dars yakunida guruuhlar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhni yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

O'quvchilarga uyg'a topshiriqlar beriladi

1. O'quvchilarga mavzu yuzasidan krossword tuzib kelish topshiriladi.
2. Bo'yin o'miziga ishlov berish jarayon xaritasini A-4 formatda bajarish.

QOPLAMA CHO'NTAKNI TIKISH

Dars maqsadi:

Ta'limi: O'quvchilarga yaxlit bichiqli fartukning qoplama cho'ntagini tikishni va tikilgan choklariga namlik issiqlik ishlovi berishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni amaliy ish jarayonida tez hamda sifatli bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda fartukni turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, ko'rgazmali, musobaqa metodi

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar:

Ko'krakpech qismi yaxlit bo'lgan fartukni tikish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, fartuk namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul'i", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarining mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarining bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Fartukning qoplama cho'ntagini tikish jarayonini tushuntirishda kompyuterdan foydalanish o'quvchilarga tushunar bo'ladi. O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, fartukning qoplama cho'ntagiga 3 xil usulda ishlov berish bo'yicha musobaqa o'tkazish mumkin. Bunda birinchi guruhga qoplama cho'ntakka mag'iz bilan ishlov berish, ikkinchi guruhga burma bilan ishlov berish, uchinchi guruhga oddiy bukib tikish topshirilishi mumkin. Mazkur musobaqa metodida o'quvchilarni

tabaqalashtirilgan holda guruhlarga bo'lish tavsiya yetiladi. Chunki qoplama cho'ntakka ishlov berish darajasi turli murakkablikda berilgan. Dars yakunida guruhlar bajargan ishlarini stol ustiga qator terib, ko'rgazma tashkil qilish va g'olib guruhni yuqori baholarni qo'yib rag'batlantirish mumkin.

O'quvchilarga uyg'a topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan texnologik xarita tuzib kelish topshiriladi.

45-48 mashg'ulot: FARTUK QISMLARINI BIRLASHTIRISH VA OXIRGI ISHLOV BERISH

Dars maqsadi:

Ta'limiylar: O'quvchilarga yaxlit bichiqli fartukka oxirgi ishlov berishni va fartukni dazmollahni o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni amaliy ish bajarish jarayonida tez hamda sifatlari bajarishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda fartukni turli bezak detallari bilan bezash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars tipi: Ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, klaster, ko'rgazmali

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Ko'krakpech qismi yaxlit bo'lgan fartukni tikish bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, fartuk namunalari, o'quv qurollari, komputer

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul'i", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 5.Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Fartukni tikish jarayonini tushuntirishda texnika vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida klaster usulidan foydalanib, "Fartuk" so'zi atrofida tushunchalarni tarmoqlash va bunda har bir o'quvchining ishtirok etishiga ahamiyat berish kerak. Amaliy mashg'ulot

jarayonida kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalarni berib borish zarur. O'quvchilar bajarayotgan ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf qilib borilsa, ish sifatlari bajariladi va o'quvchi o'z mehnatining mahsulidan xursand bo'ladi. Dars so'nggida fartuklar ko'rgazmasini uyushtirish kerak.

O'quvchilarga uyg'a topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mavzu yuzasidan krossvord yoki 10 ta test tuzib kelish topshiriladi.

49-50-mashg'ulotlar: Amaliy mashg'ulot: KASHTACHILIKDA ISHLATILADIGAN NAQSHLAR, NAQSH ELEMENTLARI.

Naqishlar chizish

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga xalq hunarmandchiligi haqida ma'lumot berish. Kashtachilik va uning turlari, ahamiyatini tushuntirish. Kashta tikishda rioya qilinadigan havfsizlik texnikasi qoidalarini, asbob va moslamalar bilan tanishtirish, ulardan foydalanishni o'rgatish. :

Tarbiyaviy: O'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat hissida tarbiyalash.

Rivojlantiruvechi: O'quvchilarda kashtachilik namunalarida ishlatilgan gul naqshlari va ranglarni turli xil zamonaviy buyumlarda qo'llash bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi.

Dars shakli: Nazariy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, klaster, ko'rgazmali

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Milliy kashtachilik buyumlari bo'yicha tayyorlangan plakatlar va slaydlar, choyshab, joynomoz namunalari, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalilanidigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyoragarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga xalq hunarmandchiligi turlari haqida ma'lumot beriladi.

Bunda xalq hunarmandchiligi namunalarini ko'rsatish va video-tasvirlarini namoyish etish maqsadga muvofiqdir. Hunarmandchilikning eng ommaviy turlaridan bo'lgan kashtachilik haqida, kashtachilik turlari va ularning turmushdagi o'rni haqida hikoya qilinadi. Kashta tikishda rioya qilinishi kerak bo'lgan havfsizlik texnikasi qoidalari va kerakli asbob-moslamalar tushuntiriladi. Bu mavzu bo'yicha mashg'ulotni hikoya, suhbat-munozara tarzida tashkil etish mumkin, bunda kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish yetiladi, milliy kashtachilik namunalaridan ko'rgazma qurollar sifatida foydalilanadi.

Kashtachilik bo'yicha o'quvchilarda mayjud bo'lgan hayotiy tajribalariga asoslangan holda suhbat-munozara uyuştirish mumkin. O'quvchilarga kashtachilik turlariga oid ma'lumotlar toplash topshirig'ini berish mumkin.

O'quvchilarga uyg'a topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mavzu yuzasidan test va kashta tikishda ishlataladigan asbob-moslamalarning rasmlarini daftarlariiga chizib kelish topshiriladi.

51-52-mashg'ulot soatlari: KASHTACHILIKDA RANGLAR VA RANG TANLASH. ISHLATILADIGAN CHOK NAMUNALARINI TIKISH

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga kashtachilikda ishlataladigan chok turlarini tikishni o'rgatish. Naqshlarni gazlama yoki buyumga ko'chirish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni kashta choklarini tikish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishslashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda kashta choklarini tikishda buyum turiga qarab ip rangi va chok turini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars tipi: Aralashgan dars turi.

Dars shakli: Nazariy va amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, klaster, ko'rgazmali

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: kashta choklari namunalari tikilgan buklet, plakatlar va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalilanadigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "BBB", "T-sxemasi", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uyg'a vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

Dars o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar:

Bu mavzuni o'qitishda kashtachilikda ishlataliladigan chok turlari: popop, iroqi, qaytma, suv, petlya choklarining tikilgan namunalaridan foydalaniladi. Shuningdek, kompyuter texnikasi yordamida slaydlar va videomateriallar namoyish etish mumkin. Har bir chok turini tikish ko'rsatmali tarzida bajarib o'rgatiladi. O'quvchilar chok turlarini amaliy ravishda bajaradilar, ularning ishlari nazorat qilib turiladi va ish davomida yo'riqnomalar berib boriladi. O'quvchilarga kashta tikishda ishlataliladigan asboblar va moslamalar; igna, qaychi angishvona, santimetrlı lenta, gardishlar va har birining nomi, vazifasi va foydalanish yo'llari o'rgatiladi. Qog'ozdag'i naqsh namunasini gazlama yoki buyumga ko'chirish jarayoni bajarib ko'rsatiladi. O'quvchilar dars jarayonida amaliy ish bajaradilar, bunda sodda shakldagi naqsh namunalarini gazlamaga ko'chirish vazifasini topshirish mumkin.

O'quvchilarga uya topshiriqlar beriladi

O'quvchilarga mustaqil ravishda gazlama bo'lagida kashta namunalaridan ijodiy tikib kelish topshiriladi.

53-54-mashg'ulot soatlari: MILLIY KASHTACHILIKDAN QIYIQCHANI BICHISH VA NUSXA TUSHIRISH. QIYIQCHA GULLARINI (naqishlarini) TIKISH. DAZMOLLASH

Dars maqsadi:

Ta'limi: O'quvchilarga milliy kashtachilik buyumlari haqida ma'lumot berish. Milliy kashtachilikdan qiyiqchani bichish, nusxa tushirish va tikish yo'llarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni qiyiqchani tikish jarayonida ozoda, sifatli va tez ishslashga odatlantirish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda kashta choklarini tikishda buyum turiga qarab ip rangi va chok turini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars tipi: Aralashgan dars turi.

Dars shakli: Amaliy mashg'ulot.

Dars metodi: og'zaki, munozara, klaster, ko'rgazmali

Moddiy texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: kashta choklari namunalari, qiyiqcha namunalari, mavzu bo'yicha bajarilgan buklet, plakatlar va slaydlar, o'quv qurollari, kompyuter

Foydalaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, "blits" savollari "Daraxt gul", "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlar.

Reja:

- 1.Tashkiliy qism-5
- 2.O'tilgan mavzuni takrorlash-10
- 3.Yangi mavzuning bayoni-15
- 4.Amaliy mashg'ulot-40
- 4.Yangi mavzuni mustahkamlash-15
- 5.Uya vazifa berish-5

Mashg'ulotning borishi

1.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini "blits" savollari orqali aniqlaydi.

2.O'tilgan mavzuni takrorlash.

3.Yangi mavzuning bayoni.

